


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

71040101 – *Transport logistikasi (avtomobil transporti) magistratura*
mutaxassisligining malaka talablari

Toshkent - 2023



Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalari", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablari rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil « 21 » 08 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

Toshkent davlat transport universiteti.

ISHLAB CHIQLIGAN:

MUNDARIJA

T/r	1.	71040101-Transport logistikasi (avtomobil transporti) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi	4
	1.1.	Qo'llanish sohasi	4
	1.1.1.	71040101-Transport logistikasi (avtomobil transporti) magistratura mutaxassisligi malaka talabning qo'llanilishi	4
	1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
	1.2.	71040101-Transport logistikasi (avtomobil transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarini tavsifi	4
	1.2.1.	71040101-Transport logistikasi (avtomobil transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari	4
	1.2.2.	71040101-Transport logistikasi (avtomobil transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari	5
	1.2.3.	71040101-Transport logistikasi (avtomobil transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
	1.2.4.	71040101-Transport logistikasi (avtomobil transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarining kasbiy vazifalari	5
	2.	71040101-Transport logistikasi (avtomobil transporti) ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistrlarining kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
	2.1.	Umumiy kompetensiyalar	6
	2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	7
	2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	7
	9	Kvalifikatsiyalar	9
	10	Bibliografik ma'lumotlar	10
	11	Kelishuv varag'i	11

bet

71040101 – *Transport logistikasi (avtomobil transporti) magistratura mutaxassisligi* bo'yicha magistratlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari buyicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1.71040101 – *Transport logistikasi (avtomobil transporti) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.*

Malaka talabi 71040101 – *Transport logistikasi (avtomobil transporti) magistratura mutaxassisligi* bo'yicha magistratlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmumini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablar, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasini va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalar;

- magistratura bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolati davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolati davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa ma'natdor shaxslar.

1.2.71040101 – *Transport logistikasi (avtomobil transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistratlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi*

1.2.1.71040101 – *Transport logistikasi (avtomobil transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistratlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:*

71040101 – *Transport logistikasi (avtomobil transporti)* – „Transport xuzmatlari“ ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, barcha ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida logistik faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini rivojlantirishda logistik tizimi faoliyatini ta'minlash, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik kobilyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmumini qamrab oladi.

1.2.2. 71040101 – *Transport logistikasi (avtomobil transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistratlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:*

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- real sektor korxonalarining rivojlanishi strategiyasini ifodalovchi logistik ko'rsatkichlar tizimi;

- davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati sub'ektlarining logistik faoliyatini ta'minlash, transport sohasidagi huquq-tartibot va qonuniyligni ta'minlash jarayonlari;

- davlat va mahalliy transport tizimini boshqaruv organlari, transport va logistik kompaniyalarida boshqaruv jarayonlari;

- transport tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assotsiatsiyalar, kooperatsiyalar, konsernlar, firma, kompaniyalar, xolding, ishlab chiqarish birlashmalarida logistik faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlari;

- transport logistikasi sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashirishni amalga oshirish jarayonlari;

- logistik jarayonlar va hodisalarini, mikro va makro iqtisodiy makonda logistik faoliyati ko'rsatkichlarining tahlil jarayonlari.

- o'quv jarayoni.

1.2.3. 71040101 – Transport logistikasi (avtomobil transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

• ilmiy tadqiqot faoliyati;

• pedagogik faoliyat;

• mohiyaviy-iqtisodiy faoliyat;

• hisob, tahlil va nazorat faoliyati;

• tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

• ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati.

1.2.4. 71040101–Transport logistikasi (avtomobil transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarining kasbiy vazifalari:

71040101–Transport logistikasi (avtransport) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktivlik, texnologik va eksperimentatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Mohiyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:

- davlat, mahalliy hukumat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar logistikasini boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarini bilishi va ularidan yuk va yo'lovchilarni tashish jarayonlarida foydalana olish;

- transport logistikasi miqdor va sifat me'zonlari hamda tizim va ob'ektlar chegaraviy kritik holatining ko'rsatkichlarini aniqlash;
 - transport logistikasi sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarni ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlamalarni amaliyotga tatbiq etish;
 - iqtisodiyot sub'ektlarining logistik tizimini shakllantirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;
 - O'zbekiston'dagi hamda xorijdagi mikro va makrodarajada sodir bo'ladigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarni xarakterlaydigan ko'rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash, ularning asosida logistik jarayonlarini istiqbolarni aniqlash;
 - logistik jarayonlar parametrlarini shakllantirish hamda bajarilishini nazorat qilish, transport-logistik kompaniyalar davlat va mahalliy resurslardan foydalanish borasida imkoniyatlarini aniqlash va ularidan samarali foydalanish;
 - transport xizmatlari bozori faoliyati monitoringini olib borish, davlat va mahalliy tashkilotlar, korxonalarda yagona logistik tizimi faoliyatini tashkil etish choralarini ko'rish.
- Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**
- yuk va yo'lovchilarni tashish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish;
 - transport tizimlarini boshqarishning xususiyatlari, ularning turlari va asosiy tavsiflari; transport tizimlarini boshqarish funksiyalari va usullari, transport tizimlarini boshqarishni davlat tomonidan muvofiqlashtirish usullari va vositalarini o'rganish;
 - logistika elementlari va uning transport ta'minoti, transport xizmatlarini ko'rsatish, yuklarni konteynerlashtirish va omborlashtirish, yuklarni yetkazib berish tizimlari, terminallar va omborlarda qayta ishlov berish moddiy oqimlar, korxonalarda transport logistika tizimini tashkil etish;
 - yuklarni yetkazib berish tizimini loyihalash va huquqiy ta'minot, tara, upakovka va yuklarni markirovkalash, logistik servis xizmatlari, infratuzilma va mezonlari, optimal tashishni tashkil etishni bilish;
 - tashishlarni tashkil etish va logistika sohasida turli xil transportlar xizmatidan foydalanishda intellektual boshqaruv tizimini, GPS va GLONASS tizimlari to'g'risida amaliy bilimlar berish;
 - transport logistikasi bo'yicha hujjatlarini ishlab chiqishni ta'minlash, tashish jarayonida bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.
- 2. 71040101 – Transport logistikasi (avtomobil transporti) ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**
- 2.1. Umumiy kompetensiyalar:**
- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, logistik muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
 - xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
 - yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
 - o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ularдан ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
 - o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lish, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalarga ega bo'lish;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot huruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- logistika jarayonlari bo'yicha ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalarga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan transport logistikasi bo'yicha loyihalarda ishtirok etish uchun kerakli ko'nikmalarga ega bo'lish;

- tashish jarayonlarni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalarga ega bo'lish;

- transport logistik korxonalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalarga ega bo'lish;

- transport korxonalarida tashish jarayonlarini va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni amaliyotda qo'llay bilish;

- transport logistikasida bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modelarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalarga ega bo'lish;

- transport logistikasida loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko'nikmalarga ega bo'lish;

- transport korxonalarida tashish jarayonlarini ta'minlash, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni va tahliiliy ishlarni bajarishni bilish;

- transport korxonalarida strategik tashish rejalarini ishlab chiqish, logistika sohasida yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsifalar va ishlamalarini amaliyotga tatbiq etishni bilish;

- transport logistikasidagi loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'nikmalarga ega bo'lish;

- tashish jarayonlariga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasi ega bo'lish;

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tkazishni bilish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar

O'quv rejaning o'quv fanlari blokleri mazmuniga qo'yiladigan minimal talablar:

majburiy fanlar blokli ilmiy tadqiqot metodologiyasi, ilmiy izlanish va tahlii, empirik va nazariy tadqiqot usullari, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiyalar, ta'limning zamonaviy usullari, mutaxassislikka doir dolzarb va chuqur ilmiy, metodologik, ilmiy-texnik, texnologik bilim, uquv, ko'nikma va kompetensiyalarni ta'lim oluvchilarda shakllantirishni hamda muayyan doktrantura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga zamin yaratishni lozim.

tanlov fanlari blokli mutaxassislik bo'yicha ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda ilmiy, pedagogik va kasbiy kompetensiyalarini kengaytirishni ta'minlashni, ta'lim trayektoriyalariga muvofiq magistr darajasidagi kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishni lozim.

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1320	44	1, 2, 3
1.01	ITM1101	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO, M1102	Maxsus fanlarni o'qitish metodologiyasi	120	4	2
1.03	EBJB1103	Etkazib berish zanjirlarida boshqaruv	300	10	1, 2
1.04	XTTTEB1104	Xalqaro tashishlarni tashkil etish va boshqarish	240	8	1
1.05	LEBJIT1105	Logistika va etkazib berish zanjirlarida intellektual tizimlar	300	10	2, 3

2.3.2. 71040101 – *Transport logistikasi (avtotransport)* ta'lim mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1320	44
Tanlov fanlar	420	14
Ilmiy faoliyat	1800	60
Davlat attestatsiyasi	60	2

2.3.1. 71040101 – *Transport logistikasi (avtotransport)* ta'lim mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

Bunda: ilmiy-tadqiqot amaliyoti ta'lim oluvchilar mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi, ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, zamonaviy axborot bazalarini qo'llash, ilmiy maqolalar va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashga doir bilim, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishi lozim;

ilmiy-pedagogik amaliyoti zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishi, o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etishga doir kompetensiya va ko'nikmalarni hosil qilishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot amaliyoti taqozo etganda yakka tartibda ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tajriba o'rtirish jarayoni tashkil etiladi. Bunda tajriba o'rtirish jarayoniga yo'llangan ta'lim oluvchi o'quv jarayoni jadvalini yakka tartibdagi ish rejasida asosida bajarishi ko'zda tutiladi.

tajriba o'rtirish ta'lim oluvchilarning ilmiy-tadqiqot olib borishi, nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish, muayyan soha va tarmoqdagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishishi, amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllanishi, kasbga samarali moslashuvini ta'minlashi lozim.

Ilmiy faoliyat blokli ilmiy-tadqiqotlar nazariyasi va amaliyoti o'zlashtirilishini, ta'lim oluvchilar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida muayyan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

2.4. Kvalifikatsiyalar. Muhandis-logist (tadqiqotchi-pedagog).

1.06	TJTN1106	Transport jarayo'nlari va tizimlari nazariyasi	120	4	2
1.07	LAT2107	Logistikada autorsing texnologiyalari	120	4	3
2.00		Tanlov fanlar	420	14	
2.00		Tanlov fanlar (3 ta fan)	420	14	1,3
		Jami	1740	58	1,2,3
		Ilmiy faoliyat	1800	60	1,2,3,4
		Davlat attestatsiyasi	60	2	4
		HAMMASI	3600	120	1,2,3,4

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib jarayonlar, tashishda tavaqqalchilik va raqobat, raqobatbardoshlik, transport-sohalar, huquq-tarbiot, ekspeditorlik xizmati, tashish sifatini baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, tashishlarni tashkil etish, logistika imovatsion texnologiyalar, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, yuklarni o'rish-tushirish, ekspertiza, bojxona ishi, logistika investitsion loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modelar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

[Handwritten signature]

M.O.: _____
 2022 yil « _____ »
 Rektor _____
 S. Turabdjano
 I. Karimov nomidagi
 Toshkent davlat texnika universiteti

M.O.: _____
 2022 yil « _____ »
 Boshqaruvi rasisi _____
 A. Djurayev
 «Toshshahartransxizmat» AJ

M.O.: _____
 2022 yil « _____ »
 Direktor _____
 Sh. Yakubov
 O'zbekiston Respublikasi
 Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
 vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
 rivojlantirish tadqiqotlari markazi

M.O.: _____
 2022 yil « _____ »
 Vazir o'rinbosari _____
 I. Abdugafarov
 O'zbekiston Respublikasi
 Transport vazirligi

KELISHILDI:

M.O.: _____
 2022 yil « _____ »
 Rektor _____
 O. Abduraxmanov
 Toshkent davlat transport universiteti

ISHLAB CHIQILDI:

KELISHUV VARAG'I

Toshkent davlat transport universiteti
71040101-Transport logistikasi (avtomobil transporti) magistratura ta'lim yo'nalishi
 bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim
 muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOlatNOMASI

Toshkent sh. " " _____ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi transport vazirligi
 "O'zavtotrahs texnika" IIM DUK bosh direktori v.b. Sh.I.Erbekov, Toshkent davlat transport
 universiteti rektori S.M.Turabjanov, Toshkent davlat transport universitetida
 ishlab chiqilgan 71040101-Transport logistikasi (avtomobil transporti) magistratura ta'lim
 yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida
 ushbu dalolatnomani tuzdik:

71040101-Transport logistikasi (avtomobil transporti) magistratura ta'lim yo'nalishi
 malaka talablari hamda o'quv rejasini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-
 2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda
 iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari
 to'g'risida" gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini
 oshirish va ularning mamalakada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini
 ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3775-son qarorlari, O'zbekiston
 Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim
 tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-son
 Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim
 muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-
 tadbirlari to'g'risida" gi 824-son qaroriga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa
 me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablariga asoslangan. Mazkur malaka talablari
 va o'quv rejalarning ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan
 talablar ham inobatga olingan.
 Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja, fan dasturlari hamda boshqa
 hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.
 Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejaning o'rnatilgan tartibda tasdiqlashga ta'lim yo'nalishi
 mumkin.

O'zbekiston Respublikasi transport
 vazirligi "O'zavtotrahs texnika"
 IIM DUK bosh direktori v.b.

Islom Karimov nomidagi
 Toshkent davlat texnika
 universiteti rektori

Toshkent davlat transport
 universiteti rektori



Sh.I.Erbekov

S.M.Turabjanov

O.K. Abduraxmanov